

## Tarixi



### **Gidravlika va gidroinformatika kafedrasini**

mudiri t.f.d, professor.

Arifjanov Aybek Muxamedjanovich

Tel.: +998712371971

Email: [a.arifjanov@tiame.uz](mailto:a.arifjanov@tiame.uz)

“Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasining tarixi Gidravlika nomi bilan 1918 yildan boshlagan. Turkiston davlat universitetida 1920 yil tashkil etilgan “Melioratsiya injenerlari “ fakulteti dekani V. D. Jurin Gidravlika kafedrasining birinchi mudiri bo’lgan. Keyinchalik V.D. Jurin rahbarligida “SANIIRI” ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgan. 1932-1936 yillar t.f.n., dotsent S.V. Novokreshenov “Gidravlika” kafedrasini mudiri lavozimida ishlagan. Shu yillarda atoqli olim E.A.Zamarin bilan hamkorlikda “Gidravlika va Gidrotexnik inshootlar” kabineti tashkil etilgan. 1936-1962 yillar Gidravlika kafedrasini taniqli olim, professor A.V. Troiskiy boshqargan. Bu davrda Gidravlika laboratoriyasi tashkil etilgan. Kafedraga sohaning yetuk mutaxassislari professor M.S. Vyzgo, dotsentlar L. A. Mashkovich, M.V. Selemetov, A.N.Razeyeva, R.M. Karimovlar ishga taklif etilgan. 1962-1973 yillar Gidravlika kafedrasini t.f.n., dotsent L. A. Mashkovich boshqargan. Bu yillarda kafedrada qator o’quv-uslubiy metodik ishlar chop etilgan. Gidrotexnik inshootlarning gidravlik hisobiga doir yangi hisoblash metodlari ishlab chiqilgan.

1973 yili kafedra mudirligiga iste’dodli olim, “Gidromelioratsiya” fakulteti dekani R.M. Karimov saylandi. Bu yillar (1973-1984) davomida “Gidravlika” kafedrasida Markaziy Osiyoda yagona bo’lgan “Gidravlika” laboratoriyasi qaytadan tashkil etildi. Kafedraga taniqli olimlar Yu.Yeshmuradov, P.N.Gurina, N.P.Togunova, G.I.Shishorina, I.A.Imerova, E.Mahmudovlar ishga taklif etilgan. 1984-1989 yillar davomida kafedraga t.f.n., dotsent Yu.Yeshmurodov rahbarlik qildi. Bu davrda “Gidravlika” kafedrasini kengaytirildi, “Gidromashinalar” va “Gidroyuritmalar” bo’yicha laboratoriya qurilmalari o’rnatildi. Kafedraga texnika fanlari nomzodi T.G.Djunusov, texnika fanlari nomzodi A.M.Arifjanov, T.Pyatayeva, A.M.Ishonxodjayev, D.R.Bozorovlar ishga taklif etilgan. Kafedrada sohaning yetuk mutaxassislari dotsentlar R.M.Karimov, P.N. Gurina, N.P.Togunova, G.I. Shishorina, X.X. Isoqovlar, assistentlar I.A. Imerova, I.A.Axmedxodjayeva, X.X.Ishanov, T.N. Tursunov, R. Quchqorovlar, laboratoriya mudiri S.Nafasov, o’quv ustasi A.S.Murzin, katta laborant A.S.Berdiyevlar ishladilar.

Keyinchalik (1994 y.) kafedra mudirligi lavozimiga O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan irrigator, dotsent R.M. Karimov qayta saylandi. Bu yillar davomida (1994-2003) kafedrada o’quv-uslubiy, ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy ishlar yangi bosqichga ko’tarildi. Kafedrani 2003-2004 yillar t.f.d., professor D.R. Bozorov boshqargan. 2004 yili “Gidravlika” kafedrasini mudiri lavozimiga t.f.d., professor A.M. Arifjanov (“Injenerlik ekologiyasi”

kafedra mudiri) saylandi va hozirgi davrga qadar boshqarib kelmoqda. Bu davrlar davomida kafedrada qator yetuk olimlar: atoqli olim, akademik X.A.Raxmatulin izdoshi hamda Gidravlika fanidan davlat tilida ilk darslikning muallifi bo'lgan t.f.d., prof. K.Sh.Latipov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan irrigator, t.f.n., dos. R.M. Karimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy t.f.n., dos. N.P.Togunova, t.f.d., prof. A.Shokirov, t.f.d., prof. D.Bozorov, t.f.d., prof. S.Xudaykulov, t.f.d. A.Fatxullayev, prof. I.Axmedxodjayeva, dos., t.f.n. X.Isakov, t.f.n., dos. B.Obidov, t.f.f.d., dotsentlar K.Raximov, S.Xidirov, L.Samiyev, katta o'qituvchilar A.Ishonxodjayev, A.Xodjiyev, assistentlar Z.Ibragimova, T. Apakxujayeva, M.Ataxonovlar, laboratoriya mudiri K.Arifjanova, N. Pulatova, laborantlar Z.Umarova, T.Yusupaliyevlar faoliyat ko'rsatdilar.

2017 yil 24-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-3003 qaroriga asosan Gidravlika kafedra negizida "Gidravlika va gidroinformatika" kafedra tashkil etildi. Hozirgi kunda kafedrada t.f.d, professor A.M.Arifjanov (2004 yildan kafedra mudiri), t.f.n, professor I.A.Axmedxodjayeva, dots. L.Samiyev, dots. dots. Sh.Kenjaboyev, dots, T.Apakxujayeva dots, M.Otaxonov dots, S.Hoshimov katta o'qituvchi, F.Babajanov, katta o'qituvchi, D.Atakulov assistentlar Z.Ibragimova, M.Gapparova, D.Baxromova faoliyat yuritmoqdalar. 2010 yildan kafedra qoshida "Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha magistratura va doktorantura faoliyat ko'rsatmoqda. Oxirgi ikki yilda kafedrada 4 ta fan doktori (DSc) va 12 ta (PhD) falsafa doktori dissertatsiyasi tayyorlandi va himoya qilindi. Ilmiy tadqiqot ishlari natijalari suv va qishloq xo'jaligi sohasida, o'quv jarayonida keng qo'llanib kelinmoqda. Kafedraning xodimlari "Yilning eng yaxshi pedagogi" tanloviga qatnashib Respublika miqyosida g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqdalar. Kafedra qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "EVRIKA" talabalar ilmiy jamiyati a'zolari nufuzli tanlovlarda qatnashib faxrli o'rinlar sohibi bo'lmoqdalar. Talabalar ilmiy jamiyati a'zolari tomonidan oxirgi ikki yilda 45 ta maqola, 10 ta patent, 20 ta dastur uchun guvohnoma va 6 ta monografiya nashr etildi. Kafedra xodimlari rahbarligida tayyorlangan talabalar "Gidravlika" fanidan Respublika fan olimpiadasida 30 yildan beri birinchi o'rin sohibi bo'lib kelmoqdalar. Kafedra xodimlari tomonidan tayyorlagan o'quv adabiyotlar qator tillarga tarjima qilingan va respublikada "Yilning eng yaxshi o'quv adabiyoti" tanlovi g'olibi bo'lib kelmoqda

---

[Gidromelioratsiya fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)